SAMARQAND VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI



# SAMARQAND VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARILISHI

*(2024-yilning yanvar-may oylari uchun dastlabki ma'lumot)*

# Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2024-yilning yanvar-may oylarida viloyat korxonalari tomonidan 14 662,0 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2023-yilning yanvar-may oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 107,8 % ni tashkil etdi.







*****_Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir._

# Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Samarqand shahrida (10 640,3 ming so‘m) hamda Jomboy tumanida (7 808,2 ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.











# Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari
# (2024-yil yanvar-may oylarida)

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib 14 226,2 mlrd. so‘mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 97,0 % ni, tashkil etdi.

Hajmi, mlrd. so‘m




2024-yilning yanvar-may oylarida viloyatda jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Samarqand shahri (42,6 %), Jomboy tumani (10,1 %), Urgut tumani (7,6 %), hamda Toyloq (6,4 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi. Shuningdek, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Kattaqo‘rg‘on shahrida (117,8 %), Kattaqo‘rg‘on tumanida (112,7 %) hamda Oqdaryo tumanida (112,1 %) kuzatildi.

FHI, %




Ulushi, %



Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

(2024-yil yanvar-may oylari)

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib, Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilishda 0,6 % ga hamda Ishlab chiqarish 8,6 % ga o‘sishi kuzatildi.

Shuningdek, Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 12,0 % ga, hamda Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashning 7,4 % ga pasayish kuzatildi.

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2024-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 97,9 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ini tashkil etdi.



# Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarning o‘zgarish sur’ati

*(O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, foizda)*

| Yil | Paxta chigiti | O‘simlik yog‘i (tozalangan) | Paxta tolasi |
|---|---|---|---|
| 2024 | 77,8 | 148,4 | 98,8 |
| 2023 | 155,1 | 95,3 | 125,8 |
| 2022 | 103,8 | 74,8 | 103,3 |

| Yil | Tamaki | Pivo | Yumshoq bug‘doy va spelta uni |
|---|---|---|---|
| 2024 | 101,2 | 84,2 | 95,8 |
| 2023 | 116,4 | 104,6 | 38,3 |
| 2022 | 120,5 | 86,4 | 98,8 |

| Yil | Paxta tiviti | Birinchi navli un | Shag‘al |
|---|---|---|---|
| 2024 | 75,7 | 76,5 | 66,2 |
| 2023 | 109,3 | 111,8 | 232,8 |
| 2022 | 139,7 | 118,0 | 32,4 |

O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,6 % ni (2023-yilning yanvar-may oylarida 0,4 %), o‘rta-yuqori texnologiyali 14,2 % (12,9 %), o‘rta-quyi texnologiyali 21,9 % (17,9 %) va quyi texnologiyalisi 60,4 % (65,9 %) ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 6,4 % (2023-yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 140,9 %), metallurgiya sanoatining ulushi 9,9 % (2023-yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 91,9 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 22,3 % (2023-yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 100,8 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 35,4 % (2023-yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 97,6 %) ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2023-yil yanvar-may | 2024-yil yanvar-may | Farqi, +/- |
|---|---|---|---|
| Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t. | 28,0 | 26,8 | - 1,2 |
| Paxta tolasi, ming t. | 26,9 | 26,5 | - 0,4 |
| Tozalangan paxta yog'i ming tonna. | 6,4 | 6,6 | 0,2 |
| Shag'al – ming t. | 211,5 | 140,0 | - 71,5 |
| Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni og'irligi 600 g (buxanka), tonna | 305,5 | 233,6 | - 71,9 |
| Tamaki – mln. dona | 4 058,8 | 4 108,5 | 49,7 |
| Piva – ming litr | 8 844,0 | 7 443,0 | - 1 401,0 |

*2024-yilning yanvar-may oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni og'irligi 600 g (buxanka), 233,6 tonna (2023-yilning yanvar-may oylariga nisbatan 23,5 % ga) hamda 26,8 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (4,2 %) ishlab chiqarishda pasayish kuzatildi.*

## Yuk avtomobillari ishlab chiqarish

Samarqand viloyatida 2024-yil yanvar-may oylarida yirik korxonalar bo‘yicha jami 1 216 dona yuk avtomobillari ishlab chiqarildi. Yuk avtomobillari ishlab chiqarishda o‘sish sur’ati o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan 36,6 % ga ko‘paygan.





| | | |
|---|---|---|
| 2024-yil | 1 216 dona | 136,6 % |
| 2023-yil | 890 dona | 50,6 % |
| 2022- yil | 1 596 dona | 99,4 % |

## Avtobuslar ishlab chiqarish

Samarqand viloyatida 2024-yil yanvar-may oylarida 228 dona avtobus ishlab chiqarilib, ushbu ko‘rsatgich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 11,3 % ga kamaygan.





| | | |
|---|---|---|
| 2024-yil | 298 dona | 87,6 % |
| 2023-yil | 340 dona | 90,4 % |
| 2022-yil | 376 dona | 116,4 % |

## Metallurgiya sanoati






Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-may oylarida metallurgiya sanoati ulushi 10,9 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 137,3 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilning yanvar-may oylari yakuniga ko‘ra, metallurgiya sanoatining ulushi 9,9 % gacha ko‘tarilib, fizik hajm indeksi esa 91,9 % ni va ishlab chiqarish hajmi 1 446,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-may oylarida Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi 3,2 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 91,4 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilning yanvar-may oylari yakuniga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi 6,4 % gacha ko‘tarilgan, fizik hajm indeksi esa, 140,9 % ni va ishlab chiqarish hajmi 935,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-may oylarida Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 30,5 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 107,9 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilning yanvar-may oylari yakuniga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 26,7 % gacha ko‘tarilib, fizik hajm indeksi esa, 97,5 % ni va ishlab chiqarish hajmi 3 911,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati



2023-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 87,7 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilning yanvar-may oylari yakuniga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,8 % ni, o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 95,0 % ni va ishlab chiqarish hajmi 116,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi.




## To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati



2023-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 19,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 112,3 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilning yanvar-may oylari yakuniga ko‘ra, to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 18,5 % ni, o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 102,3 % ni va ishlab chiqarish hajmi 2 708,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi.




## Kiyim ishlab chiqarish



2023-yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko‘ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,7 % ni, fizik hajm indeksi esa 122,5 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,7 %, fizik hajm indeksi 88,8 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 402,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish






2023-yilning yanvar-may oylari yakuniga ko‘ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,9 % ni, fizik hajm indeksi esa 106,5 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-may oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,5 % ni, fizik hajm indeksi 2,1 martani hamda ishlab chiqarish hajmi 213,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Qog‘oz va qog‘oz mahsulotlari ishlab chiqarish






2023-yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko‘ra, qog‘oz va qog‘oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,2 % ni, fizik hajm indeksi esa 83,2 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,4 %, fizik hajm indeksi 161,2 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 199,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish






2023-yilning yanvar-may oylari yakuniga ko‘ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,2 % ni, fizik hajm indeksi esa 58,5 %.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,3 % ni, fizik hajm indeksi 189,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 334,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Elektr uskunalari ishlab chiqarish



2023-yilning yanvar-may oylari yakuniga ko‘ra elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 195,9 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,5 % ni, fizik hajm indeksi 155,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 512,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi.




## Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish



2023-yilning yanvar-may oylari yakuniga ko‘ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,4 % ni, fizik hajm indeksi esa 86,2 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,8 % ni, fizik hajm indeksi 153,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 404,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi.




## Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish



2023-yilning yanvar-may oylari yakuniga ko‘ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 9,4 % ni, fizik hajm indeksi esa 66,8 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 9,0 %, fizik hajm indeksi 104,1 % ga hamda ishlab chiqarish hajmi 1 321,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



# Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 223,7 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,5 % ini) tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-may oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 92,6 % ni tashkil etdi.

| Sanoat mahsulotlari | 2023-yil yanvar-may | 2024-yil yanvar-may | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Elektroenergiya, mln.kVt.s | 41 865,7 | 43 514,2 | 1 648,5 |
| Issiqlik energiyasi, mln. gkal | 3 034,6 | 3 338,7 | 304,1 |

*O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, %*



Elektroenergiya

Issiqlik energiyasi








## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 114,1 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 % ni) tashkil etdi.

| Sanoat mahsulotlari | 2023-yil yanvar-may | 2024-yil yanvar-may | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar, *mln. so‘m* | 19 078,7 | 26 362,6 | 7 283,9 |
| Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar, *mln. so‘m* | 41 972,5 | 51 301,3 | 9 328,8 |
| Plastmassa chiqindilari, *tonna* | 1 229,7 | 1 402,4 | 172,7 |

*O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, %*



Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar




Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar, mlrd. so‘m





## Viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

*(2024-yil 1-iyun holatiga ko‘ra)*

Bugungi kunda viloyatda 5 281 ta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 1 104 tasi (ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar umumiy sonining 20,9 %) Samarqand shahriga, 741 tasi (14,0 %) Urgut tumaniga, 562 tasi (10,6 %) Samarqand tumaniga, 370 tasi (7,0 %) Pastdarg‘om tumaniga va 290 tasi (5,5 %) Ishtixon tumaniga to‘g‘ri kelmoqda.

Jami yangi tashkil etilgan

**588 ta**

2024-yil yanvar-may

**561 ta**

2023-yil yanvar-may

**868 ta**

2022-yil yanvar-may



Jami faoliyat yuritayotgan
*(1-iyun holatiga)*

**5 281 ta**

2024-yil

**6 276 ta**

2023-yil

**8 421 ta**

2022-yil



## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 7 037,1 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 48,0 % ni tashkil etdi.

yanvar-may
mlrd. so‘m

| | |
|---|---|
| 2024-yil | 7 037,1 |
| 2023-yil | 5 100,0 |
| 2022-yil | 3 673,0 |



yanvar-may
ulushi, %

| | |
|---|---|
| 2024-yil | 48,0 |
| 2023-yil | 43,6 |
| 2022-yil | 37,0 |

